

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛI PLATFORMALAR ОРQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Jumanova Dilshoda G'uzarovna  
Qashqadaryo viloyati Yakkabog 'tumani  
18-sont DMTT direktori

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'lism sohani zamonaviy yondashuvlar asosida raqamlashtirish va ish unmdorligini oshirish, kasbiy yutuqlarni raqamli platformalar orqali shakllantrish haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена краткая информация о цифровизации сферы образования на основе современных подходов и повышения производительности труда, формирования профессиональных достижений посредством цифровых платформ.

**Abstract:** this article provides brief information about the digitization of the education sector based on modern approaches and increasing work productivity, shaping professional achievements through digital platforms.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, ta'lism sohasi, portfolio, boshqaruv, ish unmdorligi, raqamli texnologiya, takommillashtirish, zamonaviy ta'lism.

**Ключевые слова:** цифровизация, сфера образования, портфолио, менеджмент, производительность, цифровые технологии, совершенствование, современное образование.

**Key words:** digitization, education sector, portfolio, management, productivity, digital technology, improvement, modern education..

Internet tizimi, platformalar, axborot texnologiyasi orqali boshqarish tizimlarining moddiy bazasini tashkil etadi. Boshqarishda axborot texnikasidan kuchsiz foydalanish mehnat unumdarligining va boshqaruvchi shaxslar ish samaradorligining pasayishiga, tez xal qilinishi zarur bo'lgan masalalarni yechishda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ushlanib qolishlarga, ko'pincha esa kerakli ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni noto'g'ri xal etishga va boshqa muhim salbiy oqibatlarga olib keladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotini boshqarishda internet tarmoqlaridan keng ko'lamda foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan foydali havolalar bilan ishlash ko'nikmasini rahbarlarda shakillantirish orqali boshqaruvni avtomatlashtirish, elektron tizimga o'tkazish hamda qog'ozbozlikni kamaytirish, statistik ma'lumotlarni haqqoniyligini ta'minlash maqsadida joriy etish mumkun.


"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rيلотган choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini

tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, yangi sharoitlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "Taraqqiyot strategiyasi" markazi Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishi holati yuzasidan tahliliy va axborot materiallarini Internet jahon axborot tarmog'ida va ommaviy axborot vositalarida aks ettirib borish choralarini ko'rish. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda "Bolalar bog'chasi" dasturidan foydalanish boshqaruvni avtomatlashtirish, elektron tizimga o'tkazish hamda qog'ozbozlikni kamaytirish, statistik ma'lumotlarni haqqoniyligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Zamonaviy ta'lim tizmi bugungi kunda o'zgarayotgan va rivojlanayotgan bir pallada mazkur tizimda an'anaviy o'qitish usullari o'rniga texnologiyalardan keng foydalaniadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining my.mdomoi.uz elektron manzilda yotuvchi platformasi tarkibidagi portfoliosidan foydalanib kilishmoqda. Ilm-fanni jadal rivojlantirish jarayonida ko'plab korporatsiyalar yangi texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarishning barcha darajalarida ishslashga tayyor bo'lgan xodimlarni talab qiladi va maxsus ko'nikmalarga ega bo'lmagan xodimlarga bo'lgan ehtiyoj ortda qolmoqda. Portfolio tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, o'sha davrda arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan.

Portfolio ni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQSHda paydo bo'ldi. AQSH va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiya keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

**Rahbarlarning portfoliosini yaratishdan maqsad-Har bir pedagogning hayotida qiziqarli, arzigulik "kasbiy yutuqlari" bo'ladi. Bunday yutuqlar uning saytida yoki portfoliosida joylashishi maqsadga muvofiq.**

Portfolioning asosiy jihat - pedagogning kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, musobaqa va tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan izlanishlari kabilarni) namoyish etish.



Portfolio pedagogga o'z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash va qiyinchiliklarni bartaraf etishni rejalashtirish va yuqori natjalarga erishish imkoniyatini beradi.

Kompyuterlar, internet, interaktiv darsliklar, onlayn ta'lim resurslari va boshqalar pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul pedaglarimizning izlanuvchanlik darajasini oshiradi va ta'limning yanada samarali bo'lishiga imkon beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan ekan,

bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta'limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash taabiiy albatda. Bungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchasiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalgalashmoqda, jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi tashkil etilmoqda. Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo'nalishdagi ilmiy-falsaviy va dinamistik dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo'nalishda bo'lishi, diniy dunyoqarash esa Respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak.

### Portfolio quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- ⊕ portfolio sayti (sayt ko'rinishidagi portfolio);
- ⊕ veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- ⊕ elektron taqdimot;
- ⊕ natijalar papkasi.

Ta'lim va tarbiyaning assosi, poydevori bu maktabgacha ta'lim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyev prizidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmli, malakali kadrlar taylorlash yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan edilar. Mana shunday davlatni yuksak davlatlar qatoriga chiqarish uchun harakat qilayotgan bir paytda, davlatni orqaga tortib turadigan g'araz niyatli faqat o'z manfatlarini o'ylaydigan, davrimda mazza qilib yashab qolay qobilida ish ko'radigan insonlar oramizda afsuski yo'q emas. Mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erishishda salohiyatli rahbar kadrlar taylorlash asalasi birini o'rnida turadi. Bugungi kunda boshqaruvda yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish va bir vaqtning o'zida xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarni o'rgati sh boshqaruvning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan zamon talabidir. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallah va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. **Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz:** bu – ta'lim berishda bir zamonaviy shakli bo'lib. unda masofaviy ta'lim va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishslash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish ta'limni raqamlashtirish orqali yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Ta'lim sohasini raqamlashtirish quyidagi afzallikkleri o'z ichiga oladi:

- masofaviy ta'limni qo'llash orqali ta'lim olishning keng imkoniyatlarini ochish;
- rahbarlar bir qator vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddalashtirishga yordam berish;

➤ kerakli ma'lumotlarga istalgan joydan kirishni ta'minlaydi va manbalar bilan ishlashda muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.



Xulosa sifatida aytish mumkinki ta'lim sohasini raqamlashtirish turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'yнaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan bирgalikda barcha rahbar xodimlarning kundalik faoliyatida ish unmdorligining oshishiga kata turki bo'ladi. Bizning hayotimizning har bir sohasi, boshqalar bilan aloqamiz, ish faoliyatimiz va o'qish jarayonimiz dastlabki raqamli texnologiyalardan foydalanishga muhtoj.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Tillayev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash //Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari –Al-xorazmiy xalqaro ilmiy anjuman.
3. Murodov Sh.N. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi.Pedagogs jurnali / <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/871>
4. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son.